

## **TASHKILOT STANDARTI**

---

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki  
korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan  
xodimlarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi**

**NIZOM**

**Soʻz boshi**

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boʻyicha bosh mutaxassis tomonidan ISHLAB CHIQILGAN va KIRITILGAN.
2. Oʻzbekiston Milliy antidoping agentligining 23.12.2025 sanasidagi 58-son buyrugʻi bilan **TASDIQLANGAN**.
3. ILK BOR KIRITILISHI.

**Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki  
korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan  
xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi**

**NIZOM**

**TASHKILOT STANDARTI**

**1. Umumiy qoidalar**

1.1 Mazkur Nizom O'zbekiston Milliy antidoping agentligining (keyingi o'rinlarda — Agentlik) O'zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida”gi Qonuniga muvofiq korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarini rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

1.2 Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**korrupsiya** — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik** — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonunchilikda javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

**korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar** — Agentlik bilan mehnat munosabatlariga kirishgan xodimlar;

**korrupsiyaga qarshi kurashishda faol ishtirok etish** — tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish yoxud yordam ko'rsatish;

**korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashish** — Agentlikning “Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati”, “Odob-axloq qoidalari”, “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi nizom”, “Sovg'a berish va olish siyosati” kabi ichki me'yoriy hujjatlar va sohaga oid qonunchilik talablari xodimlar tomonidan buzilganda, o'tkazilayotgan xizmat tekshiruvi jarayonida bevosita ko'maklashish;

**vakolatli xodim** — korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida kelib tushgan murojaatlar, xabarlar, ma'lumotlarni ko'rib chiqish, ro'yxatga olish va tekshirish huquqiga ega bo'lgan Agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo'yicha bosh mutaxassisi;

**korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarliklar** — O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61<sup>1</sup>, 193<sup>1</sup> va

193<sup>2</sup>-moddalarida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar;

**korruptsiyaga oid jinoyatlar** — O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi 167-moddasining ikkinchi qismi “g” bandi, 168-moddasining uchinchi qismi “v” bandi, 192<sup>9</sup> va 192<sup>10</sup>, 205, 209-214-moddalari, 243-moddasida nazarda tutilgan jinoyatlarni mansab mavqeyidan foydalangan holda sodir etish hamda 301-moddasida ko‘rsatilgan jinoyatlar;

**rag‘batlantirish** – xodimni korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtiroki, qonuniylik talablariga rioya etishi borasida namuna ko‘rsatganligi uchun qo‘llab-quvvatlash maqsadida taqdirlash;

1.3 Quyidagilar korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

jamiyatda korruptsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta‘minlash;

korruptsiyaga oid jinoyatlarning barvaqt profilaktikasini ta‘minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o‘z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

aholining korruptsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash.

1.4 Rag‘batlantirish qonuniylik, adolatlilik, xolislik, oshkoralik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularning shaxsiy xavfsizligini ta‘minlash va xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

1.5 Ushbu Nizom talablari qonunchilik hujjatlariga muvofiq korruptsiyaga oid jinoyatlar haqida 30 (o‘ttiz) sutka mobaynida o‘z ixtiyori bilan arz qilgan yoki korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarni bevosita sodir etgan xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

1.6 Rag‘batlantirish bir martalik pul mukofoti, tashakkurnoma yoki esdalik sovg‘a shaklida belgilanadi.

## **2. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirish asoslari va turlari.**

2.1 Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslar quyidagi asoslardan biri mavjud bo‘lganda bir martalik pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi:

fuqarolar yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan o‘zlariga nisbatan pora talab qilgan xodim haqida yoki o‘zlariga ma‘lum bo‘lgan korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida korruptsiyaga qarshi kurashuvchi organlarga bergan xabari

asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilishi;

Agentlik xodimi o'ziga nisbatan pora berishni taklif etgan yoki pora talab qilgan shaxs haqida yoxud o'ziga ma'lum bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida bevosita o'z rahbariga bergan xabari asosida huquqbuzarlik fosh etilishi.

2.2 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar quyidagi miqdordagi 1 (bir) martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg'a bilan rag'batlantiriladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar esdalik sovg'a qiymati-bazaviy hisoblash miqdorining 2 (ikki) baravarigacha;

korrupsiyaga oid ma'muriy huquqbuzarlik haqida berilgan xabar uchun - bazaviy hisoblash miqdorining 3 (uch) baravari miqdorida;

pora summasi yoki yetkazilgan zarar yoxud o'zlashtirilayotgan (o'zlashtirilgan) mulk haqida berilgan xabar uchun — bazaviy hisoblash miqdorining 10 (o'n) baravaridan yuz baravarigacha miqdorda.

2.3 Xodim korrupsiyaga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonunchilik hujjatlariga muvofiq davlat mukofotiga ham tavsiya etilishi mumkin.

2.4 Quyidagi qarorlardan biri qabul qilingandan so'ng rag'batlantirish masalasi ko'rib chiqiladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik to'g'risidagi xabar Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiquvchi Ishchi guruh (keyingi o'rinlarda — Ishchi guruhi) tomonidan ko'rib chiqilib, mazkur xabar o'rnatilgan tartibda tasdiqlanganda;

korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha jinoyat ishlari yuzasidan sudning ayblov hukmi yoki qarori qonuniy kuchga kirganda.

2.5 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq xarajatlar Agentlikning byudjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

### **3. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasini ko'rib chiqish tartibi**

3.1 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish masalasi Ishchi guruhi tomonidan ko'rib chiqilib, bu haqda tegishli qaror qabul

qilinadi.

3.2 Ishchi guruhining tarkibi Agentlik direktori buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

3.3 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni rag‘batlantirishda quyidagilar Ishchi guruhning asosiy vazifalari deb hisoblanadi:

xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish hamda ularni ushbu sohaga qo‘shayotgan hissasi uchun munosib taqdirlash;

qonunbuzarlik haqida vijdonan xabar bergan xodimlarga nisbatan ishdan bo‘shatish, lavozimdan tushirish, kamsitish, ta‘qib qilish kabi tazyiqlarga yo‘l qo‘ymaslik va taqdim etilgan ma‘lumotlar boshqa xodimlarga yoki uchinchi shaxslarga ularning roziligisiz oshkor qilinmasligini nazorat qilish;

korrupsiya holatlari haqida xabar bergan xodimlarning ta‘qibga olinmasligi kafolatini ta‘minlash;

korrupsiyaning barcha ko‘rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish hamda ushbu sohada davlat siyosatining samarali amalga oshirilishi bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.

3.4 Rag‘batlantirish Ishchi guruhining taqdimnomasi (tavsiya) asosida Agentlik direktorining buyrug‘i bilan amalga oshiriladi.

3.5 Taqdimnomaga rag‘batlantirish uchun asos bo‘luvchi quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

ro‘yxatdan o‘tgan ariza nusxasi yoki og‘zaki berilgan xabarni tasdiqlovchi ma‘lumotlar;

sudning qonuniy kuchga kirgan qarori yoki ayblov hukmi nusxasi;

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar.

3.6 Ishchi guruhining raisi guruh qarorining qonuniyligi, xolisligi hamda shaxslarning shaxsiga oid ma‘lumotlarining oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

3.7 Agentlik buyrug‘iga asosan bir martalik pul mukofoti 5 (besh) ish kuni ichida xodimlarning shaxsiy hisobvarag‘iga o‘tkazib beriladi, esdalik sovg‘asi esa qonunchilik hujjatlariga muvofiq sovg‘a qilinadigan buyum xarid qilingandan so‘ng 3 (uch) ish kuni ichida topshiriladi.

3.8 Tashakkurnoma shaklida rag‘batlantirish masalasi Agentlik direktori tomonidan ko‘rib chiqiladi.

## **4 Yakuniy qoidalar**

4.1 Rag‘batlantirilgan xodimlar reyestri korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens bo‘yicha bosh mutaxassis (vakolatli xodim) tomonidan yuritiladi va

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hisobot berib boriladi.

4.2 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarining xavfsizligini ta'minlash maqsadida ular haqidagi ma'lumotlar faqat qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida oshkor etilishi mumkin.

4.3 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni, ularning oila a'zolari va yaqin qarindoshlarini himoya qilish qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

4.4 Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish bilan bog'liq nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.


















4.5 Ushbu Nizom talablari buzilganligida aybdor bo'lgan xodimlar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

### **O'zgartirishlar kiritilishi xronologiyasi**

| <b>№</b> | <b>Kiritilgan qo'shimcha yoki o'zgartirish</b> | <b>Sana</b> | <b>Imzo</b> |
|----------|------------------------------------------------|-------------|-------------|
|          |                                                |             |             |
|          |                                                |             |             |
|          |                                                |             |             |
|          |                                                |             |             |
|          |                                                |             |             |
|          |                                                |             |             |



## Tanishtiruv varaqasi

| №   | Xodimning familiyasi, ismi, sharifi | Sana       | Imzo                                                                                  |
|-----|-------------------------------------|------------|---------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | З.Х. Сагдулов                       | 24.12.2025 |    |
| 2.  | А.Б. Салиев                         | 24.12.2025 |    |
| 3.  | З.А. Акбарходжаева                  | 24.12.2025 |    |
| 4.  | Б.Б. Турсунов                       | 24.12.2025 |    |
| 5.  | Х.Р. Оминов                         | 24.12.2025 |    |
| 6.  | Д.О. Чиркова                        | 24.12.2025 |    |
| 7.  | Н.Ш. Ешқимов                        | 24.12.2025 |   |
| 8.  | Т.З. Каримов                        | 24.12.2025 |   |
| 9.  | Р.М. Разлидиров                     | 24.12.2025 |  |
| 10. | М.Х. Хамидова                       | 24.12.2025 |  |
| 11. | Д.А. Давронова                      | 24.12.2025 |  |
| 12. | З.Э. Кодинова                       | 24.12.2025 |  |
| 13. | Л.А. Хошимов                        | 24.12.2025 |  |
| 14. | М.Ш. Тюрин                          | 24.12.2025 |  |
| 15. | А.Д. Абдурахманов                   | 24.12.2025 |  |
| 16. | Н.Х. Ахмедов                        | 24.12.2025 |  |
| 17. | У.Бурханов                          | 24.12.2025 |  |
| 18. | Т. Мирзаманова                      | 24.12.2025 |  |
| 19. |                                     |            |                                                                                       |
| 20. |                                     |            |                                                                                       |
| 21. |                                     |            |                                                                                       |
| 22. |                                     |            |                                                                                       |
| 23. |                                     |            |                                                                                       |
| 24. |                                     |            |                                                                                       |
| 25. |                                     |            |                                                                                       |
| 26. |                                     |            |                                                                                       |
| 27. |                                     |            |                                                                                       |
| 28. |                                     |            |                                                                                       |
| 29. |                                     |            |                                                                                       |
| 30. |                                     |            |                                                                                       |
| 31. |                                     |            |                                                                                       |
| 32. |                                     |            |                                                                                       |
| 33. |                                     |            |                                                                                       |